

**MUDOFAA TIZIMIDA JISMONIY TAYYORGARLIK VA SPORT
MUTAXASSISLARNI TAYYORLASH JARAYONINING BUGUNGI HOLATI VA
MUAMMOLI MASALALARINI ASOSLASH.**

A.A.Abduraxmanov

*dotsent, Quruqlikdagi qo‘shinlar instituti jismoniy tayyorgarlik va
sport kafedrasida katta o‘qituvchisi*

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 13.06.2026

Revised: 14.06.2026

Accepted: 15.06.2026

Ushbu maqolada bugungi kunda Mudofaa tizimida jismoniy tayyorgarlik va sport mutaxassislarni tayyorlash jarayonining bugungi holati, ularni tayyorlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar hamda shu yo‘nalishda muammoli masalalarni asoslashning ilmiy nazariy asoslari aytib o‘tilgan

KALIT SO‘ZLAR:

*jismoniy tarbiya,
salomatlik, psixologik
tayyorgarlik, sog‘lom
turmush tarzi, jismoniy
tayyorgarlik,
mutaxassislar, harbiy
xizmatchilar, jismoniy
mashqlar.*

Bugungi global xavfsizlik muhiti, harbiy sohada raqobatning kuchayishi va zamonaviy urush taktikalarining o‘zgarib borishi mudofaa tizimida xizmat qilayotgan kadrlarning nafaqat intellektual, balki yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarligini ham talab etmoqda.

Shu sababli mudofaa tizimida jismoniy tayyorgarlik va sport mutaxassislarni tayyorlash masalasi strategik ahamiyatga ega bo‘lib, harbiy xizmatchilarning jangovar shayligi va psixologik barqarorligini ta‘minlashda muhim omil hisoblanadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda oliy harbiy ta‘lim muassasalarida jismoniy tayyorgarlikka alohida e‘tibor qaratilmoqda. Biroq mazkur sohada mavjud ayrim muammolar mutaxassislarni tayyorlash sifatini yanada takomillashtirish zaruratini ko‘rsatmoqda.

Davlatimiz, nafaqat pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini kengaytirish vazifasini, balki ularning kasb mahoratlari va bilimlarini oshirish vazifasini ham quymoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Qonuni PQ-1123-son 24.03.2026y. Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori PQ-414-son 03.11.2022y. Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasida Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish Konsepsiyasi PF-5924-son 24.01.2020y. Mamlakatda yuksak madaniyatga ega bo‘lgan har tomonlama yetuk hamda jismonan sog‘lom insonni shakllantirish, aholining jismoniy tarbiya va sport sohasida malaka va bilimlarini ortirishga qaratilgan ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, Qurolli Kuchlar tizimidagi ta‘lim muassasalari o‘quvchi-talabalari uchun “Armiya o‘yinlari” dasturiga kiritilgan sport turlari bo‘yicha fakultativ mashg‘ulotlar va to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yish maqsadida Mudofaa tizimida jismoniy tayyorgarlik va sport mutaxassislari kasbiy kompetentligini takomillashtirishi amalda tadbiriq etish masalasi ko‘rib chiqilmoqda.

Bugungi kunda Mudofaa tizimida jismoniy tayyorgarlik va sport mutaxassislarini tayyorlashning bir nechta yo‘nalishlari amalga oshirilmoqda.

Oliy harbiy ta‘lim muassasalarida, maxsus fakultet va kafedralarda, malaka oshirish kurslarida hamda har yili bo‘lib o‘tadigan Mudofaa vazirligi qo‘shinlari jismoniy tayyorgarlik va sport mutaxassislari o‘quv-uslubiy yig‘inlarida amalga oshirilib kelmoqda.

Ta‘lim muassasasida kursantlar ta‘lim dasturlarida ko‘zda tutilgan jismoniy mashq, usul va xatti-harakatlar amaliy o‘zlashtirilishiga, shuningdek, sohaga oid nazariy bilimlari, ularning tashkiliy-uslubiy mahoratlari hamda shaxsiy tarkibining jismonan kamol topish jarayoniga rahbarlik qilish ko‘nikmalari shakllantirilishiga yo‘naltirilgan.

OHTM olib boriladigan jismoniy tayyorgarlik mashg‘ulotlarida sog‘lom turmush tarzining targ‘ib qilinishi, tinglovchi va kursantlarning ma‘naviy-axloqiy va ruhiy sifatlari, shijoati tarbiyalanishi, jismoniy mashqlar bilan muntazam shug‘ullanish odatlari shakllanishiga omil bo‘lishi lozim.

Jismoniy tayyorgarlik O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida olib boriladigan jangovar tayyorgarlikning asosiy fanlaridan biri bo‘lib, shaxsiy tarkibga beriladigan harbiy ta‘lim va tarbiya jarayonining muhim va ajralmas qismi hisoblanadi.

Jismoniy tayyorgarlikdan ko‘zlangan asosiy maqsad – harbiy xizmatchilarning jangovar va o‘z ixtisosligiga oid vazifalarni o‘z vaqtida muvofaqiyatli bajarish uchun jismoniy jihatdan doimo shay turish va yuksak ma‘naviy-ruhiy sifatlarini tarbiyalashdan iboratdir.

Jismoniy tayyorgarlik davomida hal etiladigan asosiy vazifalar quyidagilardan iborat.

harbiy xizmatchilarning jismonan kamol topishini yaxshilash, sog‘ligini mustahkamlash, atrof-muhit va harbiy-professional faoliyatning salbiy ta‘sirlariga nisbatan organizmining bardoshlilik qobiliyatini oshirish;

chidamlilik, kuchlilik, tezlik, chaqqonlik va egiluvchanlik kabi jismoniy sifatlarini rivojlantirib, talab darajasida saqlab borish;

yurish qiyin kechadigan hududlarda piyoda harakatlanish, tabiiy va sun‘iy to‘siqlarni yengib o‘tish, qo‘l jangi amallarini dadil bajarish va harbiy-amaliy suzish ko‘nikmalarini

shakllantirish.

Jismoniy tayyorgarlik jarayonida harbiy xizmatchilarning nazariy bilimlari va tashkiliy-uslubiy ko'nikmalari shakllantiriladi. Jismoniy tayyorgarlik shaxsiy tarkibning maxsus-harbiy tayyorgarlik darajasini yanada oshishiga, ma'naviy-ruhiy sifatlarini tarbiyalanishga va bo'linmalarning jangovar hamjihatligi takomillashishiga omil bo'lishi shart.

So'ngi yillarda mudofaa tizimida xalqaro standartlarga mos mashg'ulotlar joriy etilishi, sport infratuzilmasining yaxshilanishi va raqamli texnologiyalardan foydalanish ijobiy natijalar bermoqda. Shu bilan birga, harbiy xizmatchilar o'rtasida sport musobaqalarini tashkil etish, ommaviy sportni rivojlantirish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish ishlari faollashgan.

Jismoniy tayyorgarlik va sport boshlig'i, jismoniy tayyorgarlik tadbirlariga rahbarlik qiladigan, ushbu tadbirlarni tashkillashtiradigan va olib boradigan mansabdor shaxslarning nazariy va uslubiy tayyorgarlik darajasi oshirib borilishini ta'minlashi lozim.

Shtat bo'yicha jismoniy tayyorgarlik va sport boshlig'i bo'lishi ko'zda tutilmagan harbiy qismda (muassasada) harbiy qism (muassasa) komandirining (boshlig'ining) buyrug'i bilan ofitserlar va serjantlar tarkibiga mansub, puxta tayyorgarlikka ega kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilar orasidan shtatdan tashqari jismoniy tayyorgarlik va sport boshlig'i tayinlanadi.

Jismoniy tayyorgarlik va sport mutaxassislari tibbiyot xizmati mutaxassislari bilan birgalikda harbiy xizmatchilarga o'z sog'ligi ustidan o'zi nazorat olib borishini tushuntirib borishi, shaxsiy va umumiy gigiyena qoidalariga amal qilish ko'nikmalariga ega bo'lishini, jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlari davomida o'z xatti-harakatlarini idora qilishning oddiy usullari bilan tanishishtirib borishi lozim.

Shaxsiy tarkibni jismoniy mashqlarga ongli yondashish fazilatini tarbiyalash;

o'zining jismonan barkamollik darajasi, mashq ijrosini o'zlashtirganlik darajasi va salomatligining holatini aniqlash uchun harbiy xizmatchi o'z sog'ligi ustidan o'zi nazorat olib borishini bilishi va kuzatuv natijalariga baho bera olishi kerak.

Harbiy xizmatchi o'z sog'ligi ustidan nazorat olib borishi bir qator sifat va miqdor ko'rsatkichlaridan iborat, xususan: hol-ahvolning yaxshi-yomonligini, faollikni, kayfiyatning ko'tarinki yoki tushkunligini, uyquga to'ygan-to'ymaganligini, ishtaha bor-yo'qligini, tana vazni, yurak urishining tezligini, og'riq turlarini, ishchanlik qobiliyatini, sport sohasida erishilgan natijalarni tahlil qila olishni va h.k. bilishidan iborat bo'ladi.

O'z sog'ligi ustidan o'zi nazorat olib borishga o'rgatish tariqasida shifokor, jismoniy tayyorgarlik va sport boshlig'i, sport murabbiyi harbiy xizmatchilarni jismoniy mashq va sportning fiziologik-gigiyenik asoslari bilan tanishtirishlari, o'z xatti-harakatlarini idora qilishning oddiy qoidalarini va bu borada erishilgan natijalarga baho berish usullarini o'rgatishlari, shuningdek, antropometrik asboblar va ular vositasida asosiy o'lchovlarni bajarish usullari bilan tanishtirishlari, shundan so'ng, o'lchov amallarini mustaqil bajara olish ko'nikmalariga ega bo'lishlari lozim.

Yuqoridagilarni inobatga olgan tarzda bugungi kunda ayrim ofitserlar (komandir va boshliqlar) shaxsiy tarkib bilan olib boriladigan jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlarini o'tkazishda nazariy bilim, ko'nikma, malaka va uslubiy tayyorgarlik darajasi yuqori emasligi, jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlarida shaxsan ishtirok etmayotganligi kuzatilmoqda. Bunda jismoniy tayyorgarlik va sport mutaxassislari tibbiyot xizmati hodimlari bilan birgalikda shaxsiy tarkibning jismoniy rivojlanishi va sog'lig'ining holatini yaxshilash bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish barobarida, bo'linma komandirlariga sport bilan shug'ullanish rejalarini ilmiy-uslubiy yondashuv orqali ishlab chiqishda yaqindan yordam berishga majbur.

Jismoniy tarbiya va sport harbiy xizmatchilarga katta ta'sir ko'rsatib, salomatligini mustahkamlaydi, ishlash qobiliyatini oshiradi, uzoq umr ko'rishga yordam beradi. Sport har qanday yoshda ham qaddi-qomatni tarbiya qilish, kuch-quvvatni saqlab turishning vositasi hisoblanadi.

Afsuski ko'pchilik o'z salomatligiga bepisand munosabatda bo'ladi. Ko'p ovqatlanish, zararli odatlarga berilish, kamharakat hayot tarzi, asabbuzarlik holatlari mana shular insult, hamda infarkt, qandli diabet, onkologik, va boshqa yomon hastaliklarga sabab bo'ladi.

Jismoniy tayyorgarlik ustidan nazorat tegishli komandirlar (boshliqlar), jismoniy tayyorgarlik va sport boshliqlari va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan olib boriladi. Ushbu nazorat shaxsiy tarkibning jismoniy tayyorgarlik darajasini o'rganib borib, yanada yaxshilashga yo'naltirilgan bo'lishi, jismoniy tayyorgarlik ustidan olib boriladigan nazorat davomida bir qator mezonlar tekshiriladi, tahlil qilinadi va ularga baho beriladi.

Zamon talablaridan kelib chiqib bugungi jismoniy tayyorgarlik va sport mutaxassislari o'z kasbiy kompetentligini oshirish kerakligi muhim va zarur, ular faqat jismoniy tayyorgarlik va sport tadbirlarini tashkillashtirish bilan chegaralib qolmasdan o'zining bilim ko'nikma va malakalarini doyimi oshirib turishi zarurligini ko'rsatmoqda.

Shu bilan bir qatorda, sohada qator dolzarb muammolar saqlanib qolmoqda.

Ayrim ta'lim dasturlarida an'anaviy yondashuvlar ustun bo'lib, zamonaviy harbiy operatsiyalar xususiyatlari va yangi jismoniy tayyorgarlik texnologiyalari yetarlicha aks etmagan.

Ba'zi ta'lim muassaslarida zamonaviy trenajyorlar, sport inshootlari va funksional diagnostika vositalari bilan ta'minlanganlik darajasi talab darajasida emas.

Jismoniy tayyorgarlik sohasida milliy harbiy xususiyatlarni hisobga olgan ilmiy tadqiqotlar va uslubiy qo'llanmalar soni yetarli yemas.

Malakli pedagog va murabiylar yetishmasligi, sport fiziologiyasi, biomexanikasi, sport psixologiyasi va raqamli texnologiyalarni yaxshi o'zlashtirgan mutaxassislarga ehtiyoj yuqori bo'lib qolmoqda.

Jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini muntazam tahlil qilish va prognozlash imkonini beruvchi avtomatlashtirilgan tizimlar barcha bo'linmalarda ham joriy etilmagan.

=====

Ayrim harbiy qismlar va ta'lim muassasalarida zamonaviy sport anjomlari, trenajyorlar, tiklanish vositalari, maxsus sport maydonlari yetarlicha emasligi amaliy mashg'ulotlar samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy metodikalarning to'liq joriy etilmaganligi ko'p hollarda an'anaviy o'qitish usullaridan foydalanilmoqda.

Zamonaviy funksional tayyorgarlik, stressga chidamlilik, taktik fitnes, raqamli monitoring tizimlari kabi yondashuvlar yetarli darajada qo'llanilmayapti.

Ilmiy-tadqiqot ishlarining kamligi, harbiy sport va jismoniy tayyorgarlik va sport sohasida ilmiy izlanishlar, innovatsion dasturlar, fiziologik tahlillar, individual tayyorgarlik modellari kam ishlab chiqilgan.

Bu esa ta'lim jarayonining ilmiy asoslanganligini pasaytiradi.

Malakali kadrlar yetishmovchiligi, ayrim hollarda yuqori malakaga ega trener-o'qituvchilar va harbiy sport instruktorlari soni cheklangan. Xususan xorijiy tajribani biladigan zamonaviy sport texnologiyalarini qo'llay oladigan, psixologik tayyorgarlik bo'yicha bilimli mutaxassislariga ehtiyoj yuqori.

Nazariy va amaliyot o'rtasidagi nomutanosiblik. Ta'lim jarayonida nazariy bilimlar ko'p berilib, amaliy mashg'ulotlarga ajratiladigan vaqt ba'zan yetarli bo'lmaydi.

Natijada bitiruvchilar real xizmat sharoitiga tez moslashishda qiyinchilikka duch kelishi mumkin.

Muammolarni bartaraf etish bo'yicha takliflar mazkur sohani rivojlantirish uchun quydagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Moddiy-texnik bazani modernizatsiya qilish, zamonaviy sport inshootlari, raqamli monitoring uskunalari va funksional trenajyorlar bilan ta'minlash.

Xalqaro tajribani joriy etish rivojlangan davlatlar harbiy akademiyalari tajribasini o'rganish va amaliyotga tatbiq qilish.

Innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash.

Simulyatsion mashg'ulotlar, onlayn nazorat tizimlari va individual tayyorgarlik dasturlarini ishlab chiqish hamda ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish.

Harbiy sport fiziologiyasi, psixologik tayyorgarlik va rehabilitatsiya sohasida ilmiy markazlar faoliyatini kengaytirish.

Jismoniy tayyorgarlik va sport mutaxassislar va yo'riqchilarning muntazam qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish.

Xulosa:

Mudofaa tizimida jismoniy tayyorgarlik va sport mutaxassislarini tayyorlash jarayoni mamlakat mudofaa salohiyatini mustaqkamlash, harbiy xizmatchilarning jangovor shayligi va kasbiy mahoratini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda mazkur sohada ta'lim dasturlarini takomillashtirish, zamonaviy mashg'ulot usullarini joriy etish va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish bo'yicha muayyan ishlar amlga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, mutaxassislar tayyorlash jarayonida bir qator muammoli masalalar ham mavjud. Jumladan, ayrim o'quv dasturining zamonaviy talablarga to'liq mos emasligi, ilmiy-metodik ta'minotning yetarli darajada emasligi, innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi, amaliyot va nazariya o'rtasidagi integratsiyaning yetarli emasligi hamda yuqori malakali pedagog va murabbiy kadrlarga bo'lgan ehtiyoj saqlanib qolmoqda.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun ta'lim jarayonini xalqaro tajriba asosida modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalar va zamonaviy sport-pedagogik yondashuvlarni keng joriy etish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyotga tadbiiq etish hamda kadrlar malakasini muntazam oshirib borish zarur. Bu esa mudofaa tizimi uchun raqobatbardosh, yuqori malakali va zamonaviy talablarga javob beradigan jismoniy tayyorgarlik va sport mutaxassislarini tayyorlash samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1.O'zbekiston Respublikasi Qonuni PQ-1123-son 24.03.2026y. Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori PQ-414-son 03.11.2022y. Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida.

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5924-son Farmoni

4.Гаппаров З.Г. Спортивная психология / Психология личности в спорте: учебник / З.Г.Гаппаров: ООО "Мехридаръ".-Т.,2009.-312 с.

5.Xamrayev I.T. Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari / I.T.Xamrayev // Buxoro davlat univesiteti ilmiy axboroti.-2018.№ 3. –B. 234-238.

6.O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo'shinlarida jismoniy tayyorgarlikni tashkillashtirish va olib borish bo'yicha qo'llanma. O'RMV 2020 yil 7 may.

7.<https://medlife.uz> encyclopedia.